

MAJBURIYATLARNING IQTISODIY MAZMUNI VA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muqumov Zafar Avazmuratovich
G'aniyev Sahriddin Vohidovich

*Associate Professor of "International school of finance technology and science",
Candidate of Economic Sciences, Uzbekistan, zafar_muqimov@tfi.uz, ORCID: 0000-
0003-3385-1365*

Majburiyatlar miqdori xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini belgilab beruvchi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 234-moddasiga muvofiq, «Majburiyat — fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa — qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi»¹⁰.

O'z faoliyatini amalga oshirish uchun korxonada tasarrufida muayyan iqtisodiy resurslar – bozor talabi bilan ta'minlanadigan iqtisodiy ne'matlar, ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan elementlar mavjud bo'lishi lozim. Shunday o'rinli savol tug'iladi: qanday manbalar hisobiga korxonada iqtisodiy resurslar paydo bo'lgan? Bu resurslarning bir qismi korxonaga uning mulkdorlari tomonidan taqdim etiladi. Mulkdorlar tomonidan kiritilgan mablag'larning (pul, moddiy yoki nomoddiy) umumiy summasi o'z kapital deb ataladi. Resurslarning bir qismi mulkdor hisoblanmagan boshqalar tomonidan kiritiladi yoki korxonada bilan korrespondent aloqalarga kirgan yuridik va jismoniy shaxslardan (kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar va b.) jalb qilingan mablag'larni tashkil qiladi.

Jalb qilingan kapital sifatida xo'jalik sub'ektining jismoniy yoki yuridik shaxslar oldidagi qarzdorligi natijasida, ya'ni firmaning o'rnatilgan muddatda olingan iqtisodiy resurslarni yoki ularning pul ekvivalentini (tomonlar kelishuviga binoan), shuningdek, ularga hisoblangan mukofotlarni (agar shartnomada bu nazarda tutilgan bo'lsa) egalariga (qarz beruvchilarga) qaytarish majburiyati yuzaga keladi. O'z navbatida, buni quyidagicha keltirish mumkin:

$$A=K+M$$

Bu yerda:

A – Aktivlar

K - O'z kapitali

M - Majburiyat.

Majburiyat – bu xo'jalik sub'ektining amalga oshirilgan harakatlari (bitimlar) natijasida shakllangan jalb qilingan mablag'lar manbai bo'lib, tovarlar, ko'rsatilgan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 234-moddasi.

xizmatlar yoki bajarilgan ishlar uchun kelgusi to'lovlar uchun yuridik asos sifatida xizmat qiladi. Tenglamaning o'ng va chap tomoni miqdori doimo mos keladi, chunki aynan bir narsa turli nuqtai nazar bilan ko'rib chiqiladi.

Faqat o'z kapitalidan foydalanuvchi korxonaga eng yuqori moliyaviy barqarorlikka ega bo'ladi (uning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti birga teng), lekin bu holda u o'zining rivojlanish sur'atlarini chegaralaydi va qo'yilgan kapitalga foyda keltirishning moliyaviy imkoniyatlaridan cheklanib qoladi. Korxonalarining ehtiyojlarini qoplash uchun asosiy va aylanma mablag'larga ko'p hollarda qarz kapitalini jalb etish zarur bo'lib qoladi. Qarz kapitali quyidagi ijobiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- jalb qilishning yetarlicha keng imkoniyatlari;
- aktivlarini jiddiy kengaytirish va xo'jalik faoliyati hajmining o'sish sur'atlarini oshirish zarurati tufayli korxonalar moliyaviy potentsiali o'sishini ta'minlash;
- o'z kapitali bilan qiyoslanganda nisbatan past qiymati (foйда solig'i to'lashda soliqqa tortiladigan bazadan unga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar chiqarib tashlanadi).

Ayni vaqtda qarz kapitalidan foydalanish quyidagi kamchiliklarga ega:

- moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyati pasayishi riski;
- qarz kapitali qiymatining moliya bozori konyukturasining tebranishlariga yuqori darajada bog'liqligi;
- jalb qilish protsedurasining murakkabligi (xususan katta hajmda).

Shunday qilib, qarz kapitalidan foydalanuvchi korxonaga o'z rivojlanishida nisbatan yuqori moliyaviy potentsialga (aktivlarning qo'shimcha hajmini shakllantirish hisobiga) va faoliyatning moliyaviy rentabelligini oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi, biroq ko'p hollarda moliyaviy risk va bankrotlik tahdidiga duchor bo'ladi.

Majburiyatlar bo'yicha firmalar qarzdorligi (yetkazib beruvchilarga, banklarga, byudjet bo'yicha boshqa kreditorlarga, xususiy ishchilarga va b.) mulkiy da'volar nuqtai nazaridan mulkdorlarning mulkiy huquqi oldida afzalroq ko'riladi, shuning uchun korxonaning o'z kapitali uning mulki va majburiyatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi: $O'z\ kapital = Aktivlar - Majburiyatlar$. O'z kapitali "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 1-son milliy standartiga muvofiq korxonaga aktivlarining majburiyatlar chiqarib tashlanganidan so'ng qoladigan qismidir.

Tadbirkorlik sub'ektlarining bevosita faoliyati ta'rischilar yoki tijorat tuzilmasining tarkibiy bo'linmalari, tijorat tuzilmasining o'zi va uning xodimlari o'rtasidagi ichki xarakter kabi tashqi xarakter –kontragentlar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar majburiyatlarining bajarilishi bilan bog'liq. Iqtisodiy inqirozning atributlaridan biri to'lov inqirozi sanalib, bu holatning yarmidan ko'pi muddati o'tgan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari o'rtasidagi hisob-kitoblarda debitorlik va kreditorlik qarzi o'sishi bilan birga kuzatiladi. Ish haqi bo'yicha qarzdorlik alohida e'tibor talab etadi. Jahon moliya-iqtisodiy inqirozi ta'sirida ko'pgina davlatlarda ish haqi to'lamaslik, uning kechikishi me'yorga aylandi. Agar xodimlar o'z mehnat

qobiliyatlarini ishga solish uchun zaruriy ne'mat va xizmatlar majmui bilan ta'minlanmasa, inson kapitalining jadal fiziologik va intellektual eskirishi sodir bo'ladi, bu esa jamiyatni umuman olganda beqaror, destruktiv, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tizimini esa prognozlanmaydigan holga keltiradi.

Ommaviy majburiyatlar korxonalar va vakolatli organlar nomidan davlat o'rtasida, shuningdek, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida yuzaga keladi. Davlat moliya tizimini barqarorlashtirishda soliq intizomi, ya'ni davlat va mahalliy byudjetlarga belgilangan majburiy to'lov va yig'implarni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z vaqtida hamda talab etilgan hajmda to'lanishi katta ahamiyat kasb etadi. Soliqqa tortish mexanizmi orqali jamiyatning ishsizlik va boshqa ijtimoiy oqibatlariga xarajatlari korxonalar zimmasiga yuklatiladi.

Majburiyat – fuqarolik huquqi me'yorlari – fuqarolik huquqiy munosabatlari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlarning eng keng tarqalgan shaklidir. Majburiyat –huquqiy munosabat bo'lib, uning ta'sirida bir tomon (qarzdor) boshqa tomon (kreditor) foydasiga, masalan, mulkni o'tkazish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash kabi muayyan harakatni bajarish yoxud muayyan harakatdan chetlanishga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega. Majburiyatlarni bajarishga tegishli talablar ularning mohiyati bilan bog'liq va qonunda quyidagicha ifodalangan: majburiyatlar tegishli ravishda va o'rnatilgan muddatda qonun va shartnoma ko'rsatmalariga muvofiq, bunday ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganda esa – odatda qo'yiladigan talablarga muvofiq tarzda bajarilishi lozim. Majburiyatlarni bajarish muddati va usuli qonun yoki shartnoma asosida o'rnatiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga quyidagilar kiritiladi: jarima, garov, kafillik, kafolat, chegirib qolish.

Shunday qilib, majburiyatlar vositasida tadbirkor o'z ishini oqilona tashkil etgan holda uni barcha zaruriy narsalar bilan ta'minlaydi, o'z tovarini sotadi va buning oqibatida boshqa shaxslar oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni bajaradi. Davlat moliyasi holatiga ta'sirning jiddiy omillaridan biri mamlakatda amal qilayotgan davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat va audit hisoblanadi. Korxonalar majburiyatlarini hisoblash tizimiga makroiqtisodiy yondashuv hisobot ma'lumotlarini taqdim etish metodlarining tarmoq va umuman mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan iborat. Milliy iqtisodiy maqsadlar iqtisodiy tanazzul vaqtida kapital qo'yilmalarni ko'payishini rag'batlantiruvchi moliyaviy hisobotni talab etadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan majburiyat xo'jalik faoliyatida yuz bergan voqeani o'zida aks ettirib, bu axborot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga taqdim etilishi lozim. O'z navbatida, majburiyatlar paydo bo'lishi, o'zgarishi va bekor qilinishi holatlari moliyaviy hisobotda umumiy yondashuvlar bilan aniqlanadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyati faktlarining umumiy majmui qismi sifatida iqtisodiy yoki yuridik faktlar haqida gapira olamiz. Bunda buxgalteriya

axborotlaridan tashqari iqtisodiy yoki yuridik mazmunli faktlar bir-biridan mustaqil ravishda ko'rib chiqilishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining asosiy "axborot kesimi" – aks ettirilayotgan faktlarning iqtisodiy va yuridik mazmunidir. Korxonalarining xo'jalik operatsiyalari va boshqa xo'jalik faoliyati faktlarini ko'rib chiqishda ikki ko'rish burchagi ostida odatda ularning mutlaqo farqli talqinini olamiz. Masalan, korxonaga yetkazib beruvchilardan mol-mulk tushumi iqtisodiy nuqtai nazardan firma mablag'lari hajmi ortganini, uning ishlab chiqarish quvvatlari va foyda potentsiali o'sishini anglatadi. Mol yetkazib beruvchilar oldida qarzdorlikning yuzaga kelishi ular tomonidan korxonaga taqdim etilgan qarz hajmining oshishini anglatadi. Firmaning ixtiyoriy qarzi yuzaga kelganidan tortib to qaytarilgunga qadar amalda tashkilot tomonidan olingan qarzni o'zida aks ettiradi. Ixtiyoriy foizlardan xoli kreditorlik qarzi - korxonalarining vaqtinchalik daromadi hisoblangan bepul qarzdir.


Korxonalar kreditorlik qarzi iqtisodiy mazmunining turlicha talqini mavjud. Ba'zi iqtisodchi olimlar kreditorlik qarzini «xarajatlarga aylanib ulgurmagan daromadlar» sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv dinamik balans nazariyasi miqyosida va hisob yuritishning zamonaviy kontinental-yevropacha maktabi tomonidan tan olingan. Haqiqatan, masalan, tashkilot mol yetkazib beruvchilardan tovarlar olsa, ularni to'lash bo'yicha majburiyatlar yuzaga keladi va muayyan vaqt oralig'ida ushbu qarzdorlik qaytarilmaydi. Bu esa qarz yuzaga kelganidan tortib to qaytarilgunga qadar firma bir tomondan mol yetkazib beruvchilardan olingan qimmatliklarni xo'jalik faoliyatida foydalanishini, boshqa tomondan esa yetkazib beruvchilarga pul to'lamay, ulardan oborotda foydalanib, qo'shimcha daromad olishini anglatadi, bu esa yetkazib beruvchi tomonidan kredit taqdim etilishi faktini ta'minlaydi.

Boshqa tomondan, buxgalteriya hisobining ingliz-amerika maktabi tomonidan qabul qilingan va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosiga qo'yilgan aktiv va passivning iqtisodiy talqinidan kelib chiqib, yetkazib beruvchilar oldida pul mablag'larining kelgusida to'lash sifatida majburiyatlar yuzaga kelishi fakti – bu firmalarning kelgusi xarajatlaridir. Kreditorlik qarzi avvalgi bitimlar yoki hodisalar natijasida kelgusida boshqa korxonalarga xizmatlar taqdim etish yoki aktivlar berish bo'yicha alohida korxonada mavjud majburiyatlar tufayli iqtisodiy foydaning kelgusida ehtimoliy yo'qotilishidir.

Yuridik nuqtai nazardan xo'jalik faoliyati fakti mazmuni qonunchilik me'yorlari va uning huquq nazariyasi va amaliyotida talqin qilinishining ushbu faktga munosabati bo'yicha harakati bilan aniqlanadi. Masalan, yetkazib beruvchilardan tovar kelib tushishi fuqarolik qonunchiligi nuqtai nazaridan xaridor tashkilotda kiritilgan qimmatlikka muayyan mulk huquqi vujudga kelganini anglatadi. Olingan mulkka tashkilotning huquq hajmi oldi-sotdi shartnomasining bir turi sanalgan yetkazib berish shartnomasi haqidagi qonun bilan aniqlanadi. Boshqa tomondan fuqarolik huquqi me'yorlariga muvofiq tovarlar kiritilishi bilan tashkilotlarda muqarrar qarz — mol yetkazib beruvchilar oldida kreditorlik qarzi yuzaga keladi.

Respublikamizda majburiyat tushunchasiga Fuqarolik kodeksi nuqtai nazaridan yondashiladi, bu yondashuv buxgalteriya hisobida majburiyatlarni tasniflash, baholash va aks ettirishga to'la-to'kis mos kelmaydi. Milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlaridan biri hisoblangan majburiyatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobida majburiyatlarni baholash, tasniflash va tan olish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Mamlakatimiz amaliyotida qo'llaniladigan majburiyatlar tushunchasi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida keltirilgan moliyaviy majburiyatlar tushunchasi bilan taqqoslanib, ulardagi farqlar aniqlandi (1-rasm).

“Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari” deb nomlangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartida majburiyatni odatda, aktiv olinganda yoki xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivni sotib olish to'g'risida bitimga kirishgan daqiqadan paydo bo'ladi, deb ko'rsatilgan¹¹.



1-rasm. Majburiyatlar tushunchasi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida keltirilgan moliyaviy majburiyatlar tushunchasi bilan o'zaro aloqadorligi¹².

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'rifda majburiyatlar tushunchasiga chegara qo'yilmagan. Ushbu ta'rifning qulayligi rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, yirik yoki kichik korxonalarda qo'llanishi mumkin.

Moliyaviy instrument bir tashkilotda moliyaviy majburiyatni, boshqa tashkilotda moliyaviy majburiyat yoki qarzli instrumentni yuzaga keltiradigan bitimdir¹³.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.-T.: UzBAMA, 2003. -13 b,-16 b,-23 b.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹³ “Moliyaviy instrumentlar: Axborotni ochib berish va taqdim qilish” nomli 32-son BHXS, 11-band. Международные стандарты финансовой отчетности. –М.: Аскери, 2010. 1048 с.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida “majburiyat” tushunchasi buxgalteriya qoidasiga nisbatan umumiy ma’noda ishlatiladi; bu o’z navbatida, ularni kengroq talqin qilish imkonini yaratadi. “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish tamoyillari” nomli MHXSning 47-paragrafiga muvofiq majburiyatlar “balansda moliyaviy ahvolni o’lchash bilan bevosita bog’liq elementlarga kiradi. Ular operatsiyalarning moliyaviy natijalari va boshqa voqealarning ularning iqtisodiy tavsiflariga muvofiq hisobotda birlashtirish natijasi hisoblanadigan buxgalteriya hisobi kategoriyasidan iborat.

Bu yerda majburiyat tushunchasi – “majburiyat” atamasining yuridik ma’nosiga mos kelmaydigan maxsus buxgalteriya atamasidir. Bu qoida buxgalteriya hisobining mazmunning shakldan ustunligi tamoyiliga to’g’ri keladi; unga ko’ra, “mabodo axborot operatsiyalar va boshqa voqealarni aslida ko’rsatishi lozim bo’lsa, ular nafaqat o’zlarining yuridik shakli, balki ularning mohiyati va iqtisodiy voqelikka mos ravishda ko’rsatilishi zarur”.

Shunday qilib, MHXSga muvofiq majburiyat buxgalteriya ma’nosida – eng avvalo “aktiv” va “kapital” singari balans elementidir. MHXS tomonidan bu uch tushunchaning maxsus qoidalarini ko’rib chiqamiz. MHXS “Prinitsiplari”ning 49-paragrafiga binoan aktivlar kompaniya tomonidan nazorat qilinayotgan, o’tgan davrlardagi holatlar natijasida kelajakda iqtisodiy foyda kutilayotgan zahiralardir; majburiyat – kompaniyaning o’tgan davrlardagi holatlardan keyin paydo bo’lgan iqtisodiy foydaning ketishini boshqaradigan qarzdorligidir; kapital – kompaniyaning barcha majburiyatlarini chiqarib tashlagandan keyin qolgan aktivlarining qismidir.

Kompaniya aktivlarining barcha majburiyatlarini firmaning kapitali sifatida chiqarib tashlaganidan so’nggi qismi sifatida korxonaga o’zlik mablag’larining manbalari deb atalmish summa, ya’ni balans aktivlari o’rtasida kreditor qarzdorlik passivida ko’rsatiladigan farq summasi tushuniladi.

O’zlik mablag’lari manbalari talqiniga moliyaviy hisobot elementi tarzida ikki tomonlama yondashish mumkin. Birinchi holatda kapital korxonaning qarzdor bo’lmagan mablag’larini baholashning summasi, ya’ni balansli tenglikni yuzaga keltiradigan o’lcham sifatida tahlil qilinadi. Bu yerda kapital yoki mablag’larning o’z manbalari mulk va balansni tenglashtiradigan kreditor qarzdorlik o’rtasidagi tafovut tushuniladi.

Mazkur yondashuv MHXS “Prinitsiplari”ning 23-paragrafida qayd qilingan uzluksizlik buxgalteriya prinsipiga zid keladi; unga ko’ra “moliyaviy hisobot odatda kompaniya yaqin kelajakda faoliyat ko’rsatayapti va bundan buyon ham davom etaveradi degan taxmin asosida tuziladi”¹⁴. Shu bilan birga, korxonaga o’z kapitali o’lchamini bunday talqin qilishda xo’jalik yurituvchi birlik yoki korxonaning mulk jihatdan alohida turishining buxgalteriya prinsipi tarzida qo’llashi mumkin. Bu prinsipga muvofiq buxgalteriya hisobining ma’lumotlari uning nomidan moliyaviy

¹⁴ Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. –М.: «Финансы и статистика», 2000. 36-б.

hisobot olib borilayotgan korxonaning, uning mulkdorlari nomidan mulkiy va majburiy jihatdan alohida turishini ko'rsatishi lozim¹⁵.

Shunday qilib, MHXS majburiyat qoidasining korxonaga moliyaviy hisoboti elementi sifatidagi tahlili quyidagi ikki xulosani chiqarish imkonini beradi:

1) Majburiyat kategoriyasining MHXS tomonidan berilgan qoidasi faqatgina buxgalteriya xarakteriga ega, buxgalteriya atamalaridan qurilgan va buxgalteriyadan tashqari qonunchilikda ishlatiladigan "majburiyat" tushunchasi qoidalari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan.

2) Korxonaning majburiyati yuridik fakt sifatida aktiv, majburiyatlar, kapital singari buxgalteriya kategoriyalari elementi tarzida qaralishi mumkin. Ayni paytda korxonaga yuridik majburiyatini tan olishning buxgalteriya hisobining aktiv, majburiyat yoki kapital tarzidagi maqsadlari uchun mezonlari MHXS tomonidan aniq belgilanmagan.

Shunday qilib, MHXS har qanday buxgalteriya hisobining majburiy asosini e'tirof etadi.

Majburiyatlarning yuridik va iqtisodiy mazmuni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar majburiyatlarining moliyaviy hisobot maqsadlari uchun zarurligini taqozo etadi. Hisob nazariyasida majburiyatlar asoslar bo'yicha tasniflangan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, majburiyatlarni quyidagicha guruhlashni taklif qilamiz:

- 1) ularda hisob sub'ektlari – korxonalarning ishtirok etishi varianti bo'yicha;
- 2) tashkilotning moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatishi davomiyligi bo'yicha;
- 3) muddatlari bo'yicha;
- 4) tashkilot – buxgalteriya hisobi sub'ekti iqtisodiy munosabatlarga kiradi.

Shuni qayd etish lozimki, mumkin bo'lgan klassifikatsiyalardan har biriga shartlilikning muayyan darajasi va ma'lumotlarni tartibga keltirishning aniq maqsadlariga tobelik xos. Bu shuni anglatadiki, xo'jalik faoliyati faktlari mazmuni rekonstruksiya paytida har qanday klassifikatsiyaga amal qilish buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga axborotlilikning ma'lum qirralarini olib kiradi.

Xo'jalik faoliyati fakti iqtisodiy mazmunining yuridik mazmundan ustuvorligi yoki aksincha xo'jalik faoliyati fakti yuridik mazmunining buxgalteriya hisobida aks ettirishdagi ustuvorligi moliyaviy hisobotning axborot tavsifi bilan aniqlanadi.

Iqtisodiy axborot tarkibida yoritilishga taalluqli xo'jalik faoliyati fakti sifatida majburiyat kamida uch jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin deb o'ylaymiz va ular quyidagilardan iborat bo'ladi: 1) yuridik, majburiyat munosabatlarining huquqiy shakllarini aks ettiruvchi; 2) iqtisodiy, majburiyatlarning olingan yoki berilgan qarz sifatidagi ma'nosini va mos operatsiyalar samaradorligi nuqtai nazaridan hamda ularning korxonalar xo'jalik jarayonlaridagi ahamiyatini ko'rsatuvchi; 3) buxgalteriya, dastlabki ikki jihat mazmunini foydalanuvchilar uchun zarur moliyaviy hisobot axborotlari tarkibida keltirish imkoniyatini tavsiflovchi.

¹⁵ Хендриксен Э.С., Ван Бреда М.Ф. Теория бухгалтерского учета. –М.: «Финансы и статистика», 1997.100-б.

Aytilgan fikrlar O'zbekiston Respublikasida joriy qilingan buxgalteriya hisobining me'yoriy hujjatlarida qabul qilingan majburiyatlar talqinini buxgalteriya hisobotida xo'jalik sub'ektlari majburiyat munosabatlarining jami kompleksini yoritishga imkon bermaydi, deb tavsiflash mumkin. Buxgalteriya hisobi predmetida «tashkilotlarning mulki, majburiyatlari va xo'jalik operatsiyalari» sifatida belgilangan. Ammo «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunda «majburiyat» hisob kategoriyasini kreditorlik qarzi sifatida nisbatan tor ma'noda ifodalangan. Natijada majburiyatning to'liq mazmunini ochib berish imkoni bo'lmaydi.

Shu bilan birga ixtiyoriy moliyaviy hisobot ko'rsatkichi korxonaning majburiyatlari holati va dinamikasini aks ettiruvchi sifatida xarakterlanadi, bunda tomonlar sifatida uning korrespondentlari va agentlari gavdalanadi.

Majburiyatlar korxonalar tomonidan turli bitimlar amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladi va tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun keyingi to'lovlarga yuridik asos bo'lib hisoblanadi.

Firma va kompaniyalar bozorda faoliyat ko'rsatishining zarur shartlaridan biri - bu hisob-kitob va moliya intizomiga qat'iy rioya qilishdir. Tovarlarni va xizmatlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar har ikki tomon tasdiqlagan shartnomaga muvofiq belgilangan muddatlarda bajarilishi kerak. Majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi korxonalarda ishlab chiqarishda uzilishlarga olib keladi, to'lovlarni amalga oshirmaslik zanjiriga hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarning ko'payishiga, ularning moliyaviy ahvoli yomonlashuviga olib keladi.

Majburiyatlar hisobot davrida yoki undan oldingi davrlarda yuzaga kelgan, uni so'ndirish (tartibga solish) iqtisodiy nafni kamaytirishga yoki real aktivlarni kamaytirishga olib kelishi haqidagi ishonch mavjud bo'lgan kreditorlik qarzi yoki boshqa xil qarzlardir.

Majburiyatlar korxonalar tomonidan turli xil bitimlar amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladi va tovarlar, taqdim etilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun keyingi to'lovlarga yuridik asos bo'lib xizmat qiladi.

1-son "Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot" nomli buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko'ra "aktivlar, xizmatlar va ishlar xarid qilinishining tannarxi yoki qiymati majburiyatlarni baholash negizi bo'lib hisoblanadi"¹⁶.

"Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" nomli O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartida, "Majburiyatlar - shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir"¹⁷.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari. -T.: UzBAMA, 2003. -13 b, -16 b, -23 b.

¹⁷ "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" nomli O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti. 38-band. -T.: UzBAMA, 2003. -42 b.

B.Xoshimovning fikricha “Sub’ektning majburiyatlari – bu oldingi amalga oshirilgan muomalalar natijasi yoki kelajakda o’zida mujassamlangan iqtisodiy nafning chiqib ketishi yoki yangi majburiyatlarning vujudga kelishi bilan yakunlanadi.”¹⁸

Boshqa bir iqtisodchi olimning fikricha, majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo’lgan qarzdorligini ko’rsatuvchi, ularning so’ndirilishi esa, qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergan xo’jalik muomalalarining natijasidir¹⁹

Bizning fikrimizcha, majburiyat deyilganda xo’jalik yurituvchi bir sub’ektning boshqa sub’ektga mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko’rsatish, pul to’lash va boshqa harakat natijasida yuzaga keladigan hamda keyingi o’zaro hisoblashishlarga asos bo’luvchi huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda, bizning fikrimizcha, majburiyat uch asosiy xususiyatga ega bo’lishi kerak. Majburiyat boshqa sub’ektga aktivlarning o’tkazilishi, ishlar bajarib berilishi, xizmatlar ko’rsatilishi yoki hisob-kitob raqamidan pul to’lab berilishi bilan qondirilishi mumkin deyilganida, bu majburiyatlar qarzdor korxonadan tomonidan kechib yuborilishi mumkin emasligi nazarda tutilgan. Majburiyatlarning o’z vaqtida to’lanmasligi turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, haqdor korxonadan qarzdor korxonadan o’z haqini talab qilib, xo’jalik sudiga murojaat qilishi mumkin. Buning natijasida qarzdor korxonadan sudda yutqazib qo’yishi hamda sud bilan bog’liq xarajatlarni, qarz summasini, o’z vaqtida to’lanmaganligi uchun jarima summasini va yetkazilgan ma’naviy zararni qoplab berishiga to’g’ri keladi. Bu holat korxonaga katta zarar yetkazib, u moliyaviy ahvolidan yomonlashishiga sabab bo’ladi. Shuning uchun xo’jalik yurituvchi sub’ektlardan iqtisodiy munosabatlarda mahsulot yetkazib berish, xizmat ko’rsatish, ishlar bajarib berish yoki pul to’lovi orqali qarzlarni o’z vaqtida qoplab berilishi, ya’ni to’lov intizomiga rioya etishlari talab qilinadi.

Majburiyatlar munozarali bo’lmasligi kerak deyilganida, qarzdor korxonada ham majburiyat miqdori bir xil bo’lishi hamda ushbu majburiyat ikki tomonlama tan olingan bo’lishi kerak.

Milliy hisob tizimida majburiyat sirasiga kreditor va debitor qarzlari, baholanuvchi majburiyatlar (zahiralari), shartli majburiyatlar kiradi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda majburiyat deganda, eng avvalo, sodir bo’lgan turli hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan fuqarolik huquqiy munosabatini baholash va ushbu majburiyatni bajarishda o’zidagi iqtisodiy resurslarning chiqib ketishi tushuniladi.

Majburiyatlarni baholash nuqtai nazaridan xalqaro tajribaga asoslanib, ularni aniq va noaniq majburiyatlarga ajratish taklifi berildi (2-rasm).

Ta’kidlash joizki, aniq majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aniq bahosi belgilangan bo’ladi. Jumladan, kompaniyada qarzlari deb nomlanuvchi majburiyatlar kompaniyaning rejalashtirgan moliyalashtirish bo’yicha strategiyasi bilan bevosita

¹⁸ B.Xoshimov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –T.: O’qituvchi, 2004 y. -320 b.

¹⁹ Maxmudov S. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt.fan.nom. dis. ...avtoref. – Toshkent: 2006. -22 b.


bog'liq hisoblanadi. Kompaniya o'zining ichki ehtiyojidan hamda kelajakdagi istiqbolli rejasidan kelib chiqib, faoliyatini yaxshilash uchun ma'lum bir summadagi kreditni oladi va ushbu kredit bo'yicha belgilangan foizlar summasi ham aniq belgilangan bo'ladi. Bunda, ushbu majburiyatning buxgalteriya hisobidagi bahosi aniq bo'ladi.

Bizga ma'lumki, debitorlik qarzlari buxgalteriya balansining aktiv qismida, kreditorlik qarzlari esa passiv qismida joylashgan. Shu boisdan amaliyotda majburiyat deyilganida, faqat kreditorlik qarzlari tushunish odat tusiga kirgan. Majburiyatlarning farqli xususiyati, ularning kreditor qarzi sifatida baholanuvchi va shartli majburiyatlar bilan o'zaro aloqadorlikda tasavvur qilinishidir. Xalqaro standart bo'yicha majburiyatlarning quyidagi turlari mavjud (3-rasm)

Xo'jalik faoliyati jarayonida tugallanmagan hisob-kitoblar bo'yicha normal kreditorlik qarzlari qonuniy tarzda vujudga keladi. Bular quyidagilardan iborat:

- schyotlar bo'yicha belgilangan haq to'lash muddatlari doirasida mahsulotlar yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik;


- mehnatga haq to'lash bo'yicha ishchi va xizmatchilar oldidagi hamda ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari bo'yicha kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlar oldidagi qarzdorlik;



2-rasm. Majburiyatlarni baholash nuqtai nazaridan tasnifi²⁰

- moddiy boyliklar haqini to'lash muddati hali kelmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan qarzdorlik;
- soliqlar bo'yicha davlat oldidagi qarzdorlik va boshqalar.

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan




3-rasm. Majburiyatlarning tasnifi²¹.

2002 yil 27-dekabrda tasdiqlangan buxgalteriya balansiga ko'ra joriy kreditorlar tarkibiga kirgan moddalar 4-rasmida keltirilgan.

Kreditorlik qarzi moliyaviy intizom va belgilangan hisob-kitob tartibi buzilishi munosabati bilan ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari va amalga oshirilmagan mahsulot yetkazib berishlar bo'yicha tovar yetkazib beruvchilarga qarzlari; olingan moddiy boyliklar qiymati to'langan schyotlar summasidan ortiq bo'lganida vujudga keladigan, mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzlari va hokazolar.

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



4-rasm. Joriy kreditorlik qarzlari tarkibi²².

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, debitorlik qarzi qoida tariqasida, pul va moddiy mablag'lar amalda chiqib ketishi hisobiga paydo bo'lishini, ularning kamayishi esa pul va moddiy mablag'lar qaytib kelishi yoki qayta baholanishi natijasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Kreditorlik qarzi tashqaridan mablag'lar kelishi hamda xo'jalik faoliyati jarayonida qarz paydo bo'lib, uning qayd qilinishi natijasida vujudga keladi. Masalan, byudjetga qarzar soliqlar hisoblanishi natijasida, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzar ish haqini hisoblash bilan yuzaga chiqadi va hokazo.

Balansdagi axborotlar tasnifi muayyan maqsadlarga javob berishi lozim, ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: kreditorlar uchun korxonalar to'lovga qobilligini keltirish, korxonalarning xo'jalik faoliyatini tavsiflash.

Majburiyat korxonalar buxgalteriya hisobining muhim ob'ekti, korxonalarning moliyaviy holatini o'lchash elementi hisoblanadi. Me'yoriy hujjatlarga muvofiq:

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Majburiyat – bu korxonaning o'tgan holatlar natijasida yuzaga kelgan qarzdorligi bo'lib, uning so'ndirilishi, kutilgani kabi, korxonalarining o'zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning kamayishiga olib keladi. Korxonalar majburiyatlari hisobini oqilona tashkil etishning muhim manbai ularning iqtisodiy asoslangan tasnifidir. Buxgalteriya hisobida majburiyatlar haqidagi axborotlarni shakllantirishning metodologik asoslari va ularni moliyaviy hisobotlarda oshkor qilish “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son buxgalteriya hisobi milliy standarti bilan tartibga solinadi.

Qaytarish muddatlari bo'yicha majburiyatlar joriy va uzoq muddatli majburiyatlarga bo'linadi.

Ko'pgina iqtisodchi olimlar ham majburiyatlarni uzoq muddatli va joriy majburiyatlarga ajratadilar. Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikricha, uzoq muddatli majburiyatlar – bu keyingi biznes sikli yoki keyingi hisobot yili (qaysi biri uzunroq bo'lsa) davomida joriy aktivlarni to'lash uchun ishlatilishni talab qilmaydigan majburiyatlardir.²³

Joriy majburiyatlar – korxonaning operatsion sikli mobaynida qaytariladigan yoki balans sanasidan boshlab 12 oy mobaynida qaytarilishi lozim bo'lgan majburiyatlardir. Ba'zi adabiyotlarda joriy majburiyatlarga qisqa muddatli majburiyat ham deb ta'rif berilgan. Jumladan, A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo'ziev, N.Rizaevlarning fikricha, qisqa muddatli majburiyatlar o'z ichiga joriy aktivlar bilan qayta moliyalashtirilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni oladi²⁴.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamiz hisob tizimida majburiyatlarni buxgalteriya hisobida asosan ikki turga bo'lib tasniflash amalga oshiriladi: joriy va uzoq muddatli majburiyatlar. Bu kabi tasniflash ularning faqat muddatini ifodalaydi, ammo majburiyatlarning iqtisodiy mohiyatini to'la-to'kis ochib bermaydi. Bu holat o'z navbatida buxgalteriya hisobida majburiyatlarni to'la-to'kis tushunish va uni hisobda aks ettirishga imkon bermaydi. Shuningdek, ba'zi hollarda muddati o'tgan majburiyatlarni qay tarzda aks ettirish bilan bog'liq muammolar ham uchrab turadi. Bu kabi muammolarning yechimi, albatta, ularni iqtisodiy mohiyati, kelib chiqish sabablariga ko'ra tasniflash lozimligini bildiradi.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqargan mahsulotini sotib berish sharti bilan qarzgga bermasdan, oldindan to'lov asosida sotsa yoki sotgan mahsulotlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida undirib olsa, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini ham, ishchi va xizmatchilarga ish haqlari, rag'bat (mukofot) pullarini ham muddatida ijro etish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa barqaror iqtisodiyot tizimini shakllantiradi.

²³ Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. 444-b.

²⁴ Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. 274-b.